Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDIT FOIZ STAVKASINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

**Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li**

Toshkent moliya instituti "Bank ishi" kafedrası o'qituvchisi



**Annotatsiya:** Bankning daromad darajasini oshirish – uning faoliyatini to'g'ri tashkil etilganligiga, ya'ni bankning kredit siyosatining mustahkamligi va bankning barqarorligiga bog'liq. Demak, bank kredit siyosatini to'g'ri tashkil etish uning samarali faoliyatidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, resurs bazasi, bankning o'z mablag'lari, zahira kapitali, qo'shimcha kapital, zahiralar, likvidlik.

**Abstract:** Increasing the bank's income level depends on the correct organization of its activities, that is, the strength of the bank's credit policy and the stability of the bank. Therefore, the correct organization of the bank's credit policy is one of the main issues in its effective operation.

**Key words:** commercial bank, resource base, bank's own funds, reserve capital, additional capital, reserves, liquidity.

**Аннотация:** Повышение уровня доходов банка зависит от правильной организации его деятельности, то есть от силы кредитной политики банка и устойчивости банка. Поэтому правильная организация кредитной политики банка является одним из главных вопросов его эффективной работы.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, ресурсная база, собственные средства банка, резервный капитал, дополнительный капитал, резервы, ликвидность.

## INTRODUCTION

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit boshqaruvida asosiy komponent vazifasini bajaradi, balki kredit muomalasini boshqarishda iqtisodda ustuvor ham hisoblanadi.

Bank foizining turli xil formalari mavjud bo'lib ular: depozit foizi ko'rinishida, ssuda foizi bo'yicha, shu bilan birlikda banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya foizlari va boshqalar.

Ssuda kapitali bozorining turli sektorlari xususiyatlaridan kelib chiqib bir turdagi foiz stavkalari (bank va nobank) ning bir necha guruhini ajratish mumkin:

- Kredit muassasalari o'rtasidagi qisqa muddatli kredit operatsiyalarida qo'llaniladigan pul bozori stavkasi;
- Qayta moliyalashtirish stavkasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida (birlamchi va ikkilamchi bozor) stavkalar;
- Bank va boshqa kredit muassasalarining nobank tashkilotlariga va jismoniy shaxslar uchun foiz stavkalari.

Kreditning asosiy sharti - bu undan vaqtinchalik foydalanganlik uchun haq to'lash. Bu haq kredit summasiga nisbatan foiz hisobida olinadi va u kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning bahosi foiz bo'ladi. Boshqa tovarlardan farqliroq qarz pulining narxi - bu uning ma'lum to'lov ehtiyojini qondirishdek xossasidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq bo'ladi. Qarz puli kapital sifatida yoki odatdagi to'lov yoki xarid vositasida ishlatiladi. Shuning uchun ham qarzidor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to'laydi.

Iqtisodiyotda kreditga bo'lgan talab ko'p omillarga bog'liq. Birinchidan, kreditga bo'lgan talab mamlakatdagi baholar darajasi bilan funksional bog'liqlikka ega. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar bahosi ko'tarilishi sharoitida, subyektlar qo'shimcha mablag'ga muhtoj bo'ladi. Chunki ishlab chiqarish uchun zarur tovar va xizmatlar bahosi oshishi qo'shimcha mablag'ni talab etadi. Bunday holatda tashqi moliyalash manbalariga, xususan bank kreditlariga talab ortadi.


Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, texnologik jarayonlarning takomillashuvi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi kabilar ham pul mablag'lariga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.



Ikkinchidan, kreditga bo'lgan talab jamiyatda olinadigan daromad bilan funksional bog'liqdir. Mamlakatdagi uy xo'jaliklari va yirik firmalar tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad darajasining o'sishi yoki daromad me'yorining oshishi bank kreditlarini olishga moyillikni oshiradi. Shunday ekan, kreditga bo'lgan talab daromad o'zgarishiga nisbatan proporsional ravishda o'zgarib boradi.

Kredit taklifi pul bozorlarida moliyaviy vositachilar yoki kreditorlar tomonidan pul mablag'larining taklifiga bog'liq. Kredit resurslari bozoridagi taklif darajasi ham bir qator omillarga bog'liq holda shakllanadi. Bulardan eng asosiysi, jamiyatda yangidan hosil bo'lgan qiymatning jamg'armaga atalgan qismining oshib borishi, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarda vaqtincha bo'sh pul mablag'larining ortib borishi hamda ularning bank aylanmasiga jalb etish darajasi.

Aktiv va passiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari bir-biridan farqlanadi, lekin ular orasida juda yaqin aloqa va bog'liqlik mavjudki, bu bizga foiz stavkalarining umumiy strukturasi haqida gapirishga imkon beradi. Masalan, agar depozitlar bo'yicha foiz stavkalari pasayish tendensiyasiga ega bo'lsa kreditlar bo'yicha undiriladigan foizlar ham pasayadi. Moliya bozori qanchalik rivojlangan bo'lsa, ushbu bog'liqlik shuncha kuchli bo'ladi. Moliya bozori qanchalik murakkablashib, raqobat kuchaysa, ushbu riskning bank moliyaviy boshqaruvidagi ahamiyati shunchalik yuqori bo'ladi.



1-rasm: Foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillar tasnifi<sup>1</sup>

1 Muallif tomonidan tuzuldi.



Tijorat banklari foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va uni tahlil qilish foiz stavkalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan rasmda foiz stavkalar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tasnifini keltirib o'tamiz.

Banklarning kreditlar bo'yicha foiz stavkasini belgilash ularning asosiy faoliyatida samaradorlikni belgilaydi va natijada ularning moliyaviy asoslarining barqarorligiga, kapital mablag'larini to'plash orqali ta'sir qiladi. Shuning uchun kredit foiz stavkalarini belgilash banklarning alohida eng muhim qarorlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu rasmda foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi umumiy va xususiy omillarga tasniflanishini ko'rib chiqdik. Unga muvofiq umumiy omillar makro darajadagi ko'rsatkichlar o'zgarishlarini o'zida ifoda etadi. Xususiy omillar esa, bank kredit operatsiyasini amalga oshirish tartib-qoidalari, resurslar qiymati va mijozlar bilan sherikchilik munosabatlarini ifodalaydi.

Bundan tashqari, bank kreditlarining foiz stavkalarini qanday belgilaganligi, moliyaviy tizimda markaziy rol o'ynaganligi sababli, pul-kredit siyosatining samaradorligining muhim hal qiluvchi omilidir. Shu sabablarga ko'ra, banklarning kreditlar bo'yicha foiz stavkasini aniqlash xatti-harakatlarini tahlil qilish, bank operatsiyalarini monitoring qilish va pul siyosatini uzatish kanallarini tushunish uchun foydalidir.

Ko'pgina mavjud tadqiqotlar banklarning foiz stavkasini belgilashdagi xatti harakatlari foiz stavkasini o'tish istiqbolidan o'rganib chiqiladi va bu kredit foiz stavkalarining, bozor foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirini tekshiradi. Shuningdek, banklarning kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, bozor foiz stavkalari o'zgarishlariga asta-sekin javob berishga qodir ekanligini e'tirof etadi, bu esa kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining bog'liqlik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Qisqa muddatda, bozor foiz stavkalari ortib borayotganiga qaramay, banklar har qanday sabablarga ko'ra qarzdorlik budjetini moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishga harakat qilishadi, hatto bunday xatti-harakatlar ularning foiz stavkalarini belgilashda ham nomoyon bo'ladi.

Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash vaqtida resurslar qiymati, kreditga xizmat ko'rsatish bo'yicha tahmin etilayotgan xarajatlar, vositachilik va ma'muriy xarajatlar, ushbu kredit bo'yicha xarajatlarning ortishiga olib keluvchi ehtimoliy xatarlar va bank foydasi hisobga olinadi.

Kredit xizmatlari uchun to'lovlarni belgilashda bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Foiz siyosati va Ta'riflardan foydalaniladi.

Tijorat banklari aktivlarining daromadliligi va likvidliligiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira talabnomasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining aktivlarini ularning likvidlik darajasini pasayib borishi tamoyiliga asosan shakllantirish xalqaro bank amaliyotida mavjud bo'lgan aktivlarni shakllantirish tartibidan sezilarli darajada farq qiladi.

6-jadval: Chet el valyutasidagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalar<sup>2</sup>, (yillik hisobda)

Kredit muddati va turi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Jami kreditlar bo'yicha	7,5	7,1	6,4	8,2
shu jumladan:				
Qisqa muddatli kreditlar	6,9	7,5	6,7	8,3
- 60 kungacha	0,5			
- 61 kundan 90 kungacha		9,3	3,6	9,5
- 91 kundan 180 kungacha		7,5	6,2	5,9
- 181 kundan 365 kungacha	7,0	7,4	6,8	8,4
Uzoq muddatli kreditlar	7,7	6,8	6,2	8,1
- 1 yildan 2 yilgacha	7,9	7,2	6,6	8,8
- 2 yildan 3 yilgacha	10,7	8,2	6,8	8,5
- 3 yildan 4 yilgacha	8,0	7,3	5,4	9,0
- 4 yildan 5 yilgacha	6,6	6,8	7,3	8,4
- 5 yildan 10 yilgacha	6,1	4,9	5,7	7,0
- 10 yildan yuqori	4,0	2,8	2,6	5,0

2 <https://cbu.uz/uz/statistic> - saytidan muallif tomondan olib tayyorlandi



Oxirgi to'rt yillik statistikaga qaraydigan bo'lsak, oxirgi uch yillikda 60 kungacha bo'lgan qisqa muddatli kredit deyarli berilmagan. Qisqa muddatli kreditlar jami 1.6% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Uzoq muddatli kreditlar esa 1,9 % ga ortib jami 8,1 foizni tashkil etgan. Uzoq muddatli kreditlar ichida 2 yildan 3 yilgacha bo'lgan kreditlar foizi payaganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

7-jadval: Milliy valyutasidagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalar<sup>3</sup>, (yillik hisobda)

Kredit muddati va turi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Jami kreditlar bo'yicha	25,8	20,8	21,5	22,2
shu jumladan:				
Qisqa muddatli kreditlar	25,7	21,3	22,1	21,1
- 60 kungacha	23,9	20,7	21,3	21,9
- 61 kundan 90 kungacha	25,9	18,9	22,5	20,8
- 91 kundan 180 kungacha	24,8	20,1	20,8	20,6
- 181 kundan 365 kungacha	25,8	21,4	22,2	21,1
Uzoq muddatli kreditlar	25,8	20,6	21,1	22,7
- 1 yildan 2 yilgacha	25,2	21,9	22,2	22,9
- 2 yildan 3 yilgacha	27,8	21,4	22,8	23,6
- 3 yildan 4 yilgacha	24,3	22,0	23,4	24,8
- 4 yildan 5 yilgacha	21,6	18,9	21,0	23,0
- 5 yildan 10 yilgacha	19,5	18,5	17,0	22,9
- 10 yildan yuqori	17,9	17,0	17,3	17,5

Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkasi o'zgarishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qisqa muddatli kreditlarda umumiy oxirgi to'rt yillikda pasayish tendensiyasiga erishgan, ya'ni 25,7 foizdan 21,1 foizga tushgan. Uzoq muddatli kreditlar ham 25,8 foizdan 22,7 foizgacha pasaygan. Uzoq muddatli kreditlar ichida asosiy pasayish - 2 yildan 3 yilgacha bo'lgan oraliqdagi kreditlarga to'g'ri kelmoqda ya'ni 27,8 foizdan 23,6 foizgacha pasaygan.

Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni kreditlar, ikkinchi o'rinni kassali aktivlar, uchinchi o'rinni asosiy vositalar, so'nggi, to'rtinchi o'rinni esa, qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, kreditlardan keyingi ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi, kassali aktivlar esa, aktivlarning tarkibida uchinchi o'rinda turadi.

Har bir mamlakatda foiz stavkasi iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqlikda belgilanadi. Bu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, aynan mazkur mamlakatda inflyatsiya darajasi pasayishi makrodarajadagi barqarorlikning omili sifatida moliya bozorlarida nominal foiz stavkasi va tijorat banklarining foiz siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida mablag'larni yig'ib, ularni, o'z marjasini qo'shgan holda, aktiv operatsiyalarga joylashtiradi. Banklarning aktiv va passivlari o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lib, ularning muvofiqligini ta'minlash strategik maqsad hisoblanadi. Bu o'rinda, moliya bozorining rivojlanish darajasi bog'liqlik kuchayishiga omil bo'ladi. Moliya bozorida murakkablashuv va raqobat qanchalik kuchaysa, bank moliyaviy boshqaruvda foiz riskining ahamiyati shunchalik yuqorilashadi.

Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish bilan makrodarajadagi barqarorlikka erishiladi hamda moliya bozorlarida nominal foiz stavka va tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bo'yicha stavkalar ham pasayadi. So'nggi yillarda inflyatsiya darajasining jilovlanishi tijorat banklarining depozit va kredit foiz stavkalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3 <https://cbu.uz/uz/statistic> - saytidan muallif tomondan olib tayyorlandi



Xususan, tijorat banklari tomonidan kredit va depozitlar bo'yicha o'rnatilayotgan foiz stavkalari hamda banklararo pul bozoridagi foiz stavkalari pasayib bormoqda. Har bir mamlakatda foiz stavkaning shakllanishi bosqichi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Markaziy bank moliya bozoridagi operatsiyalari orqali foiz stavkaning shakllanishiga tezkor ta'sir ko'rsatadi. Moliya bozorlaridagi operatsiyalar bo'yicha bitimlarni amalga oshirish orqali tijorat banklarida likvid aktivlarni boshqarishga erishiladi. Bunda tijorat banklarining daromad keltiradigan aktivlarini segmentlash hamda bank aktivlari sekyuritizatsiya qilinishiga erishiladi.

Foiz stavkasining shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin:

1. Pul bozorida foiz stavkalari tebranish intervalining shakllanishi. Operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarini muvofiqlashtirishda Markaziy bank iqtisodiyotda ishlab chiqarish sur'atini va jamg'armalarni ko'paytirishni, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan jozibadorligini oshirishni ta'minlash nuqtainazaridan kredit-depozit bozoridagi aniq bir stavkani shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadga bank tizimining likvidligini ta'minlovchi foiz stavkalarining instrumentlar bo'yicha quyi va yuqori stavkalarni o'rnatish bilan erishiladi. Bu holatda bank tizimidagi foiz stavkasining tebranish intervali shakllanadi va ko'zlangan maqsadlarga erishishda qo'l keladi.
2. Haqiqiy ma'noda likvidlikni ta'minlash. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadi milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligini ta'minlash va himoyalashdan iborat. Aktivlar bo'yicha daromadlilik darajasini ijobiy holatda bo'lishini ta'minlash milliy pul birligining zaruriy funksiyalarni, jumladan jamg'arma vositasi, qiymat o'lchovi va muomala vositalari vazifalarini bajarish uchun zaruriy shart bo'lib hisoblanadi.

Foiz stavkaning optimal bo'lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib faoliyat yuritayotgan banklarning operatsiyalar bo'yicha daromadlilikini, aholi pul jamg'armalarini keng jalb qilish va mijozlarning pul oqimlari riskini kamaytirish kabi maqsadlarga erishishda qo'l keladi.

Tijorat banklarida kredit qo'yilmalari qadrsizlanishi va inflyatsiya ta'sirini korrektirovka qilishni joriy qilish. Ma'lumki inflyatsiya sharoitida bank aktivlari qadrsizlanib ular qiymati pasayadi. Jumladan, bankning uzoq muddatli kreditlari qadrsizlanishi yuqori bo'lib, kelajakda hatto o'zining dastlab berilgan vaqtidagi qiymatini qoplay olmasligi mumkin. Uzoq muddatli kreditlash amaliyotida kredit bahosining asosi hisoblangan foiz stavka va inflyatsiya darajasining o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarida kredit qo'yilmalarini inflyatsiya ta'sirining oldini olish usularidan biri kreditlar suzuvchi stavkalarda taqdim etilishidir. Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida qisqa muddatli kreditlarni qat'iy belgilangan foiz stavkalarda taqdim qilish mumkin.

Suzuvchi foiz stavkani qo'llash bankning foiz risklarini samarali boshqarishga yordam beradi. Tijorat banklari kreditlash amaliyotida suzuvchi foiz stavkalardan foydalanish inflyatsion yo'qotishlarning oldini olish va ularni kamaytirish bilan birga, bankning kelajakdagi pul oqimlar samarali boshqarishga zamin yaratadi.

Tijorat banklarida kreditlari bo'yicha kredit foizlarini mijozlar toifalari, kredit turlari va kreditlash usullariga muvofiq hisoblash tartibini hamda kreditlar bo'yicha to'lovlar turi va davriyligini ishlab chiqishi hamda kredit siyosatida aks ettirishi lozim. Tijorat banklarida mijozlarning toifalari va ularni kreditlash umullari kredit siyosatida aks ettiriladi. Demak, har bank mijozlar tarkibini o'rganishi va ularni kreditlash usulini belgilashi lozim. Bunday bo'linish ikkita guruhga, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratish mumkin. Biz oldingi bo'limda ko'rib o'tganimizdek, kredit foizlarini hisobga olishning bir qator usullari mavjud (annuitet, tabaqalashtirilgan yoki kamayuvchi). Ushbu usullar kredit bo'yicha foizlar va asosiy qarz summasining qaytarilish tartibini aniqlab beradi.

Bunda kreditning asosiy summasi va u bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash davriyligi oldindan belgilab qo'yiladi. Kreditlar bo'yicha to'lovlarni qaytarilish tartibi ham kredit bahosining hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ko'rib o'tgan har kredit asosiy qarzi va foiz to'lovlarni qay usulda to'lash tartibiga muvofiq, ularning yakuniy natijalari turlicha keltirib chiqariladi.

Bizning fikrimizcha kredit operatsiyalari bo'yicha tabaqalashtirilgan usuldan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu usul orqali har oylik amalga oshiriladigan to'lovlar orqali asosiy qarz qoldig'i kamayib boradi va foizlar qoldiq summaga nisbatan hisoblanadi. Ikkinchidan esa, bankning kredit riski kamayib boradi, ya'ni asosiy qarz summasi kamayib borishi risk darajasini tushiradi. Ba'zi hollarda mijozlar ushbu usul bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda boshlang'ich davrida qiyinchiliklarga duch kelib to'lovlarni kechiktirishlari mumkin.

Bu usulni jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida qo'llash o'z samarasini beradi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bo'yicha foiz va asosiy qarz summasining qaytarilish tartibini milliy va xorijiy valyutada belgilashi lozim.





## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak banklarimiz berayotgan kreditlarning foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etishda tashqi ta'sir kuchiga emas balkim ichki yani bankning ichki siyosatini tartibga solshga jiddiy e'tibor qaratishimiz kerak bu borada kredit siyosatini yaxshi tashkil etish zarur. Kredit partfelidagi kreditlarning jozibasini oshirish lozim bu borada bozardagi talab va taklifga kata e'tibor qaratish lozim.

Tijorat bankari beradigan kreditlarning foiziga tashqi ta'sirdan eng yuqori darajadagisi bo'lib inflyatsiya darajasi hisoblanadi bu boradagi inflyatsiyani targetlash rejimining joriy qilinishi ya'ni: 2024-yilning oxirigacha inflyatsiyaning darajasini 5 fozga tushirish orqali kreditning foiz darajasining tushishiga erishishimiz mumkin bu esa mijozlarning ishlab chiqarish tizimining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsata oladi.

Foiz stavkaning optimal bo'lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib faoliyat yuritayogan banklarning operatsiyalar bo'yicha daromadligini, aholi pul jamg'armalarini keng jalb qilish va mijozlarning pul oqimlari riskini kamaytirish kabi maqsadlarga erishishda qo'l keladi.

**References:**

1. Nafasov D. Bank risklarini boshqarishning zarurligi va asosiy mezonlari // Xalqaro moliya va hisob, Toshkent. №1, fevral, 2017.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan.
3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – The official website of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – Government portal of the Republic of Uzbekistan.
5. [www.uba.uz](http://www.uba.uz) – Official website of the Association of Banks of Uzbekistan.
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - The official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.